



Ibragimova feruza sadullayevna
Shamsiyeva Dilrabo abdinazar qizi

Toshkent viloyati Ohangaron tumani 39 oilaviy poliklinika hamshirasi ish joyi

Bugungi kunda aholi salomatligini muxofaza qilishda oilaviy poliklinikalar muhim o'rin tutadi. Ohangaron tumanidagi 39-oilaviy poliklinika ham hudud aholisiga sifatli va tezkor tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan poliklinikamiz 10 087 ta aholiga xizmat ko'rsatadi, shundan 5196ta erkaklar va 4891ta ayollarni tashkil qiladi.

39-oilaviy poliklinikaga 2005-yildan buyon tajribali raxbar, mudiramiz Tashanova Gavxar Abduvaitovna boshchilik qilib kelmoqda. Ko'p yillik ish tajribasi va boy amaliy bilimlari bilan u nafaqat mohir shifokor, balki kuchli tashkilotchi sifatida ham jamoa hurmatiga sazovor bo'lgan. Mudiramiz o'z ishiga judayam ma'suliyatli, malakali, hodimlarga nisbatan talabchan va vaqti kelganda g'amxo'r raxbardir.

Yosh bo'lishiga qaramasdan jamoa bilan tez chiqishib keta olgan va aholi orasida xam o'z hurmatiga ega bo'lgan umumiy amaliyot shifokori Omonjonova Zilola Marufali qizi. Shifokorimiz o'z ishiga ma'suliyat bilan yondoshadi aholiga qo'lidan kelguncha beminnat xizmat ko'rsatadi. Bu shifokorimiz 2025-yildan buyon 39-oilaviy poliklinikamizda ish boshlagan. Qisqa vaqt ichida u o'zining ma'suliyatli, bemorlarga mehribonligi va kasbga bo'lgan fidoiyligi bilan jamoada munosib o'rin egalladi.

Shuningdek, poliklinikamizda 2025-yildan buyon umumiy amaliyot shifokori sifatida faoliyat yuritayotgan Boltayev Barkamol Sayfullajon o'g'li ham jamoaning yosh va istiqbolli vakillaridan biridir. O'zining samimiyligi, o'z bilim ko'nikmalariga tayangan xolda aholiga kamtarona xizmat ko'rsatishi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Poliklinikaning katta xamshirasi Kazakbayeva Dilafruz Djalaovna jamoaning tayanch ustunlaridan biridir. U o'zining ma'suliyati, tartibiligi va kasbga bo'lgan sadoqati bilan hamkasblarimiz orasida hurmat qozongan.

jamoamizda o'zining ko'p yillik tajribasi va samimiy muomalasi bilan hurmat qozongan fidoiy xodimlardan biri doya Sancharova Nargiza Abdumutalovnadir. Ustozim 30 yillik mehnat stajiga ega bo'lib, shu yillar davomida ko'plab onalarga homiladorlik davrida antenatal parvarishini olib borishga ko'maklashgan va ko'plab chaqaloqlarning sog'-salomat dunyoga kelishida o'z hissasini qo'shgan. Tibbiyot soxasida 30-yil xizmat qilish – bu oddiy raqamlar emas. Bu fidoiylilik, sabr, kechayu kunduz tinimsiz mehnat deganidir.

Bundan tashqari poliklinikamizda ko'p yillik ish tajribasiga ega hodimlar umumiy amaliyot hamshirasi Xolqulova Difuza opa, EKG hamshirasi Baymatova Zuxra opa, emlash hamshirasi Uralova Nigora opa va muolaja hamshirasi Kaliyeva Roxat opalar, laboratoriya hamshiralari Abdusamatova Difuza va Tursunbayeva Malohat opalar o'z ish faoliyatini yuritib kelmoqda.

Poliklinikamiz jamoasida tajribali ustozlar bilan bir qatorda yosh va g'ayratli hamshiralar ham faoliyat yuritmoqda.



Poliklinikamizda 5ta tibbiy brigada o'z faoliyatini yurutadi. Xususan, poliklinikadan 10-11 klometr uzoqlikda joylashgan qishloqlarimizga brigada hamshiralarimiz tibbiy xizmat ko'rsatib kelmoqda. Aholini skrining va profilaktik ko'riklardan o'tkazishda aholiga to'g'ri tushinchalar berish kasaliklarni oldini olish ularni erta aniqlashda tibbiy brigadaning xisasi muxim o'ringa ega.

Xullas, bir so'z bilan aytganda 39-olilaviy poliklinikamiz bir tanu bir jon bo'lib xalq salomatligi yo'lida fidokorona hizmat qilmoqda va buning evaziga xalqning hurmat va tashakkurlariga erishmoqda.